

25-DARS. DASTUR VA DASTURLASH HAQIDA

Bugungi kunda ijtimoiy hayotning qaysi jabhasiga ko'z tashlamaylik, hamma joyda kompyuterlashtirish jarayoni jadal sur'atlarda amalga oshayotganini ko'rish mumkin. Endi telefon nafaqat so'zlashish qurilmasi, u orqali matnli, audio, videoxabarlarini yuborishdan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar orqali muloqot qilish ham mumkin. Zamon talabi o'quvchilarimiz oldiga bu qurilma va texnologiyalardan foydalanishni bilishnigina emas, shuningdek, dasturlash yordamida ularni rivojlantirish, raqamlashtirish vazifalarini ham qo'yamoqda.

1. Kompyuter dasturi nima?
2. Dasturlash deb nimaga aytildi?
3. Kompyuter ilovalari dastur hisoblanadimi?



BUNI BILASIZMI?

Ma'lumki, kompyuter – foydalanuvchi uchun turli masalalarni yechishda eng yaqin yordamchi. Xususan, insonga qulaylik yaratish uchun matn, grafik muharrirlar, taqdimot yaratuvchi dasturlar, elektron jadvallar singari ko'plab amaliy dasturlar ishlab chiqilgan. Shuningdek ta'lim, bank ishi, soliq, huquq, tibbiyot sohalari uchun maxsus yozilgan kompyuter dasturlari ham mavjud.

Xo'sh, dastur o'zi nima?

Kompyuterda biror masalani hal qilish uchun, eng avvalo, uning modeli va algoritmi tuziladi, so'ngra bu algoritm ma'lum bir qonun-qoidalar negizida kompyuter tushunadigan ko'rsatma va buyruqlarga aylantiriladi va o'ziga xos alifbo yordamida yoziladi. Yaratilgan matn kompyuter tilida **yozilgan dastur** deb ataladi.

Kompyuter dasturi – har qanday masalani yechish uchun kompyuter bajarishi lozim bo'lgan ko'rsatmalarning izchil tartibi. Kompyuter uchun yozilgan dastur chet tiliga o'xshaydi, istagan odam uni tez vaqtida o'rganib olishi mumkin.

Faraz qiling, atrofingizdagи deyarli barcha uskuna-yu qurilmalar kompyuter dasturlari orqali boshqariladi, ya'ni bu qurilmalar dasturchi tomonidan ketma-ketlikda yozilgan ko'rsatmalarga amal qiladi. Masalan, kompyuter ilovalari – hujjat yaratish, qo'shiq tinglash, video ko'rish, internetga bog'lanish kabilar – aslida dasturchilar tomonidan yozilgan va kompyuter amal qiladigan dasturlardir.

Tayanch tushunchalar

- Kompyuter dasturi** – biror masalani yechish uchun kompyuter tomonidan ijro etilishi lozim bo'lgan buyruqlarning izchil to'plami.
- Dasturlash** – kompyuter uchun dastur tuzish jarayoni.
- Dasturchi** – dastur tuzuvchi shaxs.

